

MAVZU: XITOY ETNIK SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI.*Mamadaliyeva Muxlisa Alisher qizi**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, magistranti**E-mail: muxlisamamadaliyeva10@gmail.com***Annotatsiya**

Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasining etnik siyosatining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Konstitutsiya va unga asoslangan qonunlar, xususan “Milliy mintaqaviy avtonomiya to‘g‘risida”gi qonun, diniy erkinlik va ta‘lim sohasiga oid normativ hujjatlar etnik ozchiliklarning huquqiy maqomini belgilab beradi. Shuningdek, Tibet va Shinjon kabi hududlarda etnik siyosatning amaliy qo‘llanishidagi farqlar ham yoritilgan. Maqolada nazariy jihatdan tenglik va erkinlik kafolatlangan bo‘lsa-da, amalda ayrim cheklovlar va tafovutlar mavjudligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Xitoy, etnik siyosat, Konstitutsiya, milliy mintaqaviy avtonomiya, diniy erkinlik, ta‘lim, Tibet, Shinjon.

Xitoy Xalq Respublikasida etnik siyosatning huquqiy poydevori Konstitutsiya va unga asoslangan maxsus qonunlar orqali mustahkamlangan. Konstitutsianing VI bo‘limi to‘liq holda “Millatlar tengligi va milliy mintaqaviy avtonomiya”ga bag‘ishlanib, barcha millatlarning teng huquqliligi, diskriminatsiya va etnik kamsitilishga yo‘l qo‘yilmasligi, milliy birlik, etnik ozchilikning madaniyati va tilini hurmat qilish qat’iy belgilangan.¹ Ushbu bo‘limga ko‘ra, Xitoy hududida yashovchi barcha millatlar — ularning soni, hududi yoki iqtisodiy imkoniyatlaridan qat’i nazar davlatning ajralmas qismi sifatida tan olinadi. Asosiy hujjatda belgilangan normalarga tayangan holda etnik ozchilik guruhlarga tegishli bo‘lgan hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy va diniy masalalar yuzasidan qonun hamda qarorlar qabul qilindi. Xitoy etnik siyosatini strukturaviy jihatdan mustahkamlovchi asosiy huquqiy baza 1984-yilda qabul qilingan etnik masalalarga oid asosiy qonunlardan biri “Milliy mintaqaviy avtonomiya to‘g‘risida”gi qonun shular jumlasidandir. U ozchilik aholi yashaydigan barcha avtonom hududlardagi aholining huquq va erkinliklari, siyosiy faolligi, iqtisodiy va ijtimoiy erkinligini belgilab beradi. Unga ko‘ra, etnik ozchiliklar zinch yashovchi hududlarda o‘z organlarini tuzish, mahalliy qonun va siyosatni otkazish huquqiga ega.

Etnik siyosatga oid bosh huquqiy asos XXR Konstitutsiyasi va “Milliy mintaqaviy avtonomiya to‘g‘risida”gi qonunlarda belgilangan normalarga asoslanib har bir avtonom hududda turlicha amaliyot kuzatiladi. Buning sababi esa ozchilik aholining iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy joylashuvining har xilligida. Konstitutsianing

¹ Constitution of the People's Republic of China, https://english.www.gov.cn/archive/lawsregulations/201911/20/content_WS5ed8856ec6d0b3f0e9499913.html

36-moddasida diniy erkinlik kafolatlangan bo‘lsa-da, u “davlatning ijtimoiy tartibi va milliy birligiga zarar yetkazmaslik” sharti bilan chegaralangan.² Bundan tashqari, 2018-yilda kuchga kirgan “Diniy ishlar to‘g’risida”³gi reglament Xitoydagi barcha diniy faoliyatni qattiq tartibga soldi. Unga ko‘ra, diniy tashkilotlar hukumat organlarida ro‘yxatdan o‘tishi, diniy rahbarlar esa davlat tomonidan tasdiqlanishi kerak. Shu reglament Tibet va Shinjonda diniy siyosatning huquqiy asosi sifatida qo‘llaniladi, biroq amalda qo‘llanish mexanizmlari hududlar bo‘yicha farq qiladi. Shu jihat keyinchalik Tibet va Shinjon siyosatlarida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Ijtimoiy sohada ham etnik ozchilik aholisi uchun bir nechta ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan eng muhimlari ona tilidan erkin foydalanish, ta’limdagi imtiyozlar, qadriyat va madaniyatni saqlab qolish bo‘lib, har bir islohotlar hujjalarga tayangan holda amalga oshiriladi. 2017-yilda qayta ko‘rib chiqilgan “Fuqarolik protsessual qonun”ining 11-moddasida: ‘Barcha etnik guruhlar fuqarolari fuqarolik protsessida o‘z og‘zaki va yozma tillaridan foydalanish huquqiga ega. Asosan ozchilik yoki bir nechta etnik guruhlar istiqomat qiladigan hududlarda xalq sudlari sud majlislarini o‘tkazadi va huquqiy hujjalarni mahalliy etnik guruhlar keng tarqalgan og‘zaki va yozma tillarda chiqaradi. Xalq sudlari mahalliy etnik guruhlar tomonidan keng tarqalgan og‘zaki yoki yozma tillarni bilmaydigan harakat ishtirokchilari uchun tarjima va tarjimonlarni ta‘minlaydi.’” deb belgilangan.⁴

Ta’lim sohasiga qaraydigan bo‘lsak, 1995-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor qayta ko‘rib chiqilgan “Ta’lim to‘g’risida”gi qonun etnik ozchiliklarga ham umumiylar bilan teng darajada ta’lim huquqini ta‘minlashga qaratilgan. Mazkur qonun konstitutsiyaviy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ijtimoiy sohada millatlararo tenglik, integratsiya va madaniy xilma-xillikni saqlashga oid normalar o‘z ifodasini topgan.⁵ Qonunning 9-10- moddalarida barcha fuqarolar, ularning etnik mansubligi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va boshqa belgilaridan qat‘i nazar, teng ta’lim olish huquqiga egaligi, shuningdek, davlatning etnik ozchiliklar yashaydigan hududlarda ta’lim sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi lozimligi qayd etiladi. Ya’ni, hukumat ta’lim infratuzilmasini mustahkamlash, moddiy-texnik bazani yaxshilash va kadrlar bilan ta‘minlash orqali chekka va etnik hududlarda ta’lim sifati hamda qamrovini oshirishni o‘z zimmasiga olishi belgilangan.

Umuman olganda, Xitoyning etnik siyosati huquqiy jihatdan tenglik, diniy erkinlik va madaniy xilma-xillikni kafolatlovchi qonunlarga tayanadi, biroq ularning

² Constitution of the People’s Republic of China, [https://english.www.gov.cn /archive/lawsregulations /201911/20/content_WS5ed8856ec6d0b3f0e9499913.html](https://english.www.gov.cn/archive/lawsregulations/201911/20/content_WS5ed8856ec6d0b3f0e9499913.html)

³ 中华人民共和国国务院令, https://www.gov.cn/zhengce/content/2017-09/07/content_5223282.htm

⁴ Civil Procedure Law of the People’s Republic of China (Revised in 2017), <https://cicc.court.gov.cn/htm/l/1/219/199/200/644.html?>

⁵ Education Law of the People’s Republic of China, http://en.moe.gov.cn/Resources/Laws_and_Policies

amaliy tatbiqi siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadiga bo'ysundirilgan. Tibet va Shinjonda qonuniy normalar separatizm va ekstremizmga qarshi kurash shiori ostida qat'iy nazorat bilan uyg'unlashgan bo'lsa, ijtimoiy sohada ta'lim, til va mehnat huquqlarining qo'llanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Natijada, qonunchilikda belgilangan teng huquqlilik formal darajada mavjud bo'lsada, real hayotda etnik ozchiliklar ko'pincha cheklov va nomutanosibliklarga duch kelmoqda.

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti Mamadaliyeva
Muxlisa Alisher qizi*